



LEARN ENGLISH VERB TENSES WITH INTERACTIVE METHODS

Kuvanova Feruza

In the system of presidential educational institutions
Creative school named after Halima Khudoyberdiyeva

English teacher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14963960>

ARTICLE INFO

Received: 24th February 2025

Accepted: 27th February 2025

Online: 28th February 2025

KEYWORDS

Verb, verb tenses, past tense, present tense, future tense, English language, technique, interactive method, formula, table, exercise, analysis.

ABSTRACT

This article contains a statement of the methodological considerations necessary to improve the quality and effectiveness of English classes in general education secondary schools, in particular, a creative school, and in the process of pedagogical activity. The article also provides an analysis of exercises related to formulas and tables in the study of some tenses of English verbs, concepts are given based on simple and generalized rules.

УЧИТЕ ВРЕМЕНА АНГЛИЙСКОГО ГЛАГОЛА ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ

Куванова Феруза

В системе президентских образовательных учреждений

Творческая школа имени Халимы Худойбердиевой Учитель английского языка

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14963960>

ARTICLE INFO

Received: 24th February 2025

Accepted: 27th February 2025

Online: 28th February 2025

KEYWORDS

Глагол, времена глаголов, прошедшее время, настоящее время, будущее время, английский язык, методика, интерактивный метод, формула, таблица, упражнение, анализ.

ABSTRACT

Данная статья содержит изложение методических соображений, необходимых для повышения качества и эффективности занятий по английскому языку в общеобразовательных средних учебных заведениях, в частности, творческой школе, и в процессе педагогической деятельности. Также в статье дан анализ упражнений, связанных с формулами и таблицами при изучении некоторых времен глаголов английского языка, даны понятия на основе простых и обобщенных правил.

INGLIZ TILIDA FE'L ZAMONLARINI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI

Quvanova Feruza

Prezident ta'lim muassasalari tizimida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijodiy maktab

Ingliz tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14963960>

ARTICLE INFO

Received: 24th February 2025

Accepted: 27th February 2025

Online: 28th February 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari, xususan, ijod maktabining ingliz tili darslari sifat samaradorligini hamda pedagog faoliyat jarayonini



Fe'l, fe'l zamonlari, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi, zamon, ingliz tili, metodika, interfaol usul, formula, jadval, mashq, tahlil.

oshirishda zarur bo'lgan metodik fikr-mulohazlar bayoni keltirilgan. Shuningdek, maqolada ingliz tilidan ba'zi fe'l zamonlarni o'rganishda formula, jadvallarga oid mashqlar tahlili berilib, sodda va umumlashma qoidalar asosida tushunchalar berilgan.

Kirish. Keyingi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida sezilarli darajada islohotlar amalga oshirildi, deyish mumkin. Bul holat ta'lim barcha bo'g'inida aks etmoqda. Xususan, o'rta ta'lim maktabi negizida tashkil etilgan ijod maktablari misolida mazkur islohotlarni ko'rish mumkin. Chunki ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yadi. Buning uchun biz o'qituvchilar dars davomida yangicha usullardan samarali foydalanishimiz lozim. Jahondagi rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda o'quvchi yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori malakali mutaxassislar yetishtirib berish vazifalarini ham hal qilmoqda. Shu ma'noda o'quvchilarni zamonaviy fikr lay oladigan, dunyoqarashi keng – komil inson qilib tarbiyalash maqsadi ko'zlangan islohotlarni qo'llab-quvvatlashda ingliz tili fanini o'qitish muhim jihatlardan ekanligini qayd etish mumkin.

Zamonaviy fikrlovchi mutaxassislar uchun har jabhada zarur bo'ladigan ingliz tili fani tarkibidagi fe'l zamonlarining mazmun-mohiyatini formula, jadvallar asosida o'rganish har jihatdan o'rinli, bizningcha.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Bunda o'qituvchilar asosiy e'tiborini fe'l zamonlarining o'zbek tilidagi mazmuniga qaratish lozim. Negaki harakat va holatni ifodalovchi o'zbek tilidagi fe'llarning qonuniyatini yaxshi anglamazdan turib, ingliz tiliga oid fe'llarni mohiyatini tushunish qiyin bo'ladi. Bugungi kunda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga yordam bo'ladigan harakatlarni ifodalyadigan fe'llardan misollar keltirish, ularning harakatni ifodalayotgan mazmunini o'quvchilarga to'la-to'kis tushuntirilgach, avvalo, shu so'zlardan gaplar hosil qilish tavsiya etiladi. Shundan so'ng quyidagi jadvalni yozuv asosida zamonlarni farqlash mumkin:

The Present Tense- hozirgi zamon	The Past Tense-o'tgan zamon	The Future Tense-kelasi zamon
I go to school. -Men maktabga boraman. I clean the room. -Men xonani tozalayman.	I went to school yesterday. -men kecha maktabga bordim. I cleaned the room yesterday. -men kecha xonani tozaladim.	I will go to school tomorrow. -Men ertaga maktabga boraman. I will clean the room tomorrow. -Men ertaga xonani tozalayman.

Bunda fe'lning qaysi zamonda ekanligini o'quvchi o'zbek tilida his qilsa, to'liq anglab yetsa, ingliz tilidagi variantlaridan foydalanish imkoniyati kengayadi deyish mumkin. Harakatning ayni vaqtda bo'layotganligini ifodalovchi, o'tgan zamonda yoki kelasi zamonda ifodalovchi mazmuni hosil qilayotgan jihatlarni farqlashda nafaqat so'z, qo'shimcha, balki toifalashirilgan jadval ham muhim ekanligini aytish mumkin. Bunda nazariy bilimlarni



o'quvchilarga o'rgatishda o'ziga mahorat talab etiladi. Fe'l zamonlariga oid misollarni keltirish uchun yozuv taxtasida jadvali aks ettirish samarali usul deyish mumkin.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'quv jarayonlardan kuzatiladiki, o'quvchilarning psixologik qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'limiy maqsadlarga erishish mumkin. Ushbu buyuk maqsad yo'lida nafaqat o'qituvchilar balki, o'quvchilar ham ilg'or harakat qilishi uchun fe'l zamonlariga oid mavzularni o'rganishda jadvali, formulaga ega ko'rgazmalardan foydalanish muntazam ravishda o'quvchida ko'nikma hosil qilib boradi. Natijada o'quvchilar faqatgina fe'l zamonlariga oid bilimlarni egallabgin qolmay, balki mazkur so'zlarni nutqda qo'llash imkoniyati ham kengayib boradi. Xususan, Indefinite tenses va ularning ishlatilishi va yasalishidai xususiyatlarni quyidagicha aks ettirish va o'quvchi ham aynan shunday tarzda qayd etib boorish topshirig'ini bajarishi kerak. Shundan keyin zamonlarning farqini ifodalovchi xususiyatlarni tushuntirilishi lozim:

Indefinite Tenses (Noaniq zamonlar)		
Present Indefinite Tense Hozirgi noaniq zamon	Hozirgi zamonga ammo gapirilayotgan vaqtda sodir bo'lmayotgan voqea va hodisalarni ifodalaydi	We go to school every day. Biz maktabga har kuni boramiz.
Past Indefinite Tense O'tgan noaniq zamon	O'tgan zamonda sodir bo'lgan va hozirgi zamon bilan aloqasi bo'lmagan voqea va hodisalarni ifodalaydi	I wrote a letter yesterday. Kecha men xat yozdim.
Future Indefinite Tense Kelasi noaniq zamon	Kelajakda sodir bo'ladigan voqea va hodisalsrni ifodalaydi	Tomorrow I will go to the cinema. Ertaga men kinoga boraman.
Future Indefinite in the Past O'tgan kelasi noaniq zamon	Ma'lum shaxsning kelasi zamonga aloqador ko'chirma gapida qo'llaniladi	I thought I should see you at the party. Seni bazmda ko'raman deb o'ylagandim.

Natijada **Present Indefinite Tense**, ya'ni hozirgi noaniq zamon bilan **Past Indefinite Tense** – o'tgan noaniq zamonning farqi; **Future Indefinite Tense** – Kelasi noaniq zamon va **Future Indefinite in the Past** – O'tgan kelasi noaniq zamon qo'llanish o'rniga oid bilimlar hosil bo'ladi. Bunday usul sodda ko'rinishi tabiiy, biroq ana shu sodda xususiyat o'quvchilar uchun muhim. O'quvchilar o'zlari aks ettirgan jadvallarni turli ranglarda berishi xotirada saqlanib qolishini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Metodik tajribalarimiz tahlilidan shu narsa ayonlashadiki, tilda ham mavjud bo'lgan qonuniyat formulalari jadvallarda yanada sodda va tushunarli aks etadi. Ingliz tili darslarida foydalaniladigan zamonlarning ba'zilar haqida fikr yuritar ekanman, jadvallardan ingliz tili o'qituvchilari o'z mashg'ulotlarida va bitiruvchi kurs



talabalari amaliyot davrida foydalansa, samaradorlikka erishishi mumkin. Ushbu materiallar maktab darsligiga asoslangan bo'lib, ingliz tili fani o'qituvchilari mahoratini yuzaga chiqarishda muhim degan fikrni hosil qiladi. Odatda, Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya kabi ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda hamda ingliz tili xorijiy til sifatida o'rgatilayotgan mamlakatlarda ingliz tili mashg'ulotlarida, darslardan tashqarida jadvalli yoki formulali tushuntirish va tushunish usuli keng ommalashgan. Bu jadvallar darsni qiziqarli qilish bilan birga, o'quvchi va talabalarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Ko'rinadiki, ijodiylikni oshirishda fe'l zamonlarini o'rganish bilan uyg'unlashmoqda. Bunday metodikadan har bir ingliz tili o'qituvchisiz ijodiy yondashgan holda kasbiy darslarida qo'llashi, rivojlantirishi, shakl-shamoyilini boyitib borishi ta'limiy maqsadlarga erishish kalitidir, degan xulosaga kelish mumkin.

References:

1. O'razboyev H. Ingliz tili jadvallarda. (Metodik qo'llanma). – Sirdaryo;, GDU. 2008.
2. Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles "Destination B1" Macmillan, 2011.
3. www.oxfordenglish.com